

**TURLI TUPROQ SHAROITLARIDA DANKSIZ ANOR
YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINI O'RGANISH**

Obidov Asadullo G'ulomjon o'g'li

Qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti, intensiv sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, va issiqxona xo'jaliklari" kafedrasi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'lkamiz hududidagi turli tuproq navlarida danaksiz, sifatli anor turlarini yetishtirishni tadqiq etadi. Respublikamiz hududida shifobaxsh anorga talab kattaligi uchun har xil turdag'i anor navlari kashf qilinmoqda va mahalliylashtirilmoqda.*

Kalit so'zlar: tuproq, danaksiz anor, nav, tur, shifobaxsh.

Mevalarni xalq xo'jaligida ahamiyati juda katta hisoblanadi. Har bir mevada odam organizmi uchun kerakli bo'lgan turli xil vitaminlar mavjud. Shuning uchun xalq xo'jaligida mevaga bo'lgan talab ham kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan , tibbiyotni otasi hisoblanmish Abu Ali ibn Sino ham insonlarni davolashda mevalardan juda ko'p foydalangani manbalarda ta'kidlangan. Mevalar ichida anorning o'rni juda katta. Ibn Sino "Tib qonunlari" kitobida ham anorning foydali jihatlarini yozib qoldirgan. Bugungi kunda anorga bo'lgan talab keskin ortdi. Shuning uchun olimlarimiz sifatli va serhosil anor ko'chatlari ustida bosh qotirishmoqda. Shu kungacha yurtimiz hududida anorning 3 xil turi , 69 dan ziyod navlari mavjud bo'lib, achchiq anor ham o'z-o'zidan 3 ga bo'linadi. "Asl qayn" , "Past qayn" , va "Qizil qayn" . Nordon anorning ham 3 xil turi mavjud bo'lib , ular " Asl qubbo diyon " , " Ko'k teri " , " A'lo qayn". Shirin anorning esa 2 turi mavjud bo'lib, " Katta qizg'ish" , "Sariq tun" deb nomlangan. Bugungi kunda shu navdagi anorlarni turli tuproq sharoitiga moslashgan navlari kashf qilinmoqda. Ayniqsa danaksiz anor ustida juda kattta izlanishlar olib borilmoqda [1:1].

Agar yoqutday tovlanuvchi anorni qo'lga olib, shaklu-shamoyliga e'tibor qaratsangiz, uning toji qirollarning bosh kiyimiga juda o'xshab ketadi. Mevasi tabiiy ekologik toza mahsulot bo'lganligi bois ham boshqa mevalardan tubdan farq qiladi.

Anor yurtimizda kamida 2000 yildan buyon etishtirib kelinadi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, sohibqiron Amir Temurning dasturxonidan doimo anor mevasi o'rinni olgan. Mirzo Bobur asarlarida ham Marg'ilonda "Dona kalon" va "Sammon" navli anorlarini ta'rifi qayd qilingan[2:2].

Anor lotincha "granatus" so'zidan tarjima qilinganda, "urug" ma'nosini anglatadi. Uning mevasi 700 ga yaqin urug' shaklidagi donachalardan tarkib topgan. Tabiatda bu mevaning 10 dan ortiq turi uchraydi va ular bir-biridan rangi va mazasiga ko'ra farqlanadi.

Anorning vegetatsiya davri 180-210 kun bo'lib, yozdan kuzgacha gullaydi va sentyabr-oktyabr oylarida pishib etiladi. U 3-4 yoshda meva tuga boshlaydi, 8-10

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

yoshdan to'liq hosilga kiradi, 30-40 yil davomida meva beradi. Hosildorligi gektaridan 200 sentnergacha boradi.

Anorning har qanday turida sog'liq uchun foydali vitamin va minerallar bor. Mevasining tarkibida 19-20 foiz shakar, 0,5-5 foiz kislotalar, sharbatida esa shifobaxsh temir va tanin hamda po'stlog'i tarkibida 32 foizgacha oshlovchi moddalar mavjud.

Anor xalq tabobatida dorivor vosita sifatida keng qo'llaniladi va xalqimiz xush ko'rib iste'mol qiladi. Abu Ali ibn Sinoning dunyoga mashhur tibbiyat qonunlarida anorning shifobaxshligi shunday qayd etib o'tilgan: "Agar ertalabki nonushtada anor, tushlikdagi taomda piyoz, kechda asal iste'mol qilishga odatlansang, sening qoning ko'z yoshidek toza va tiniq bo'ladi". Anorning tibbiyotda aniqlangan bebafo sifatlaridan yana biri uning sharbati odam organizmida, qonda endokrionologik kasalliklar rivojlanishinien oldini oladi. Qonni tozalash va jigar-buyrak faoliyatini faollashtirish xususiyatlariga ega. Bu mevani doimiy iste'mol qilish yurakning soat kabi muntazam ishlashini ta'minlaydi.

Yurtimizning anorli bog'lari

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 4-oktyabrdagi "Farg'ona viloyatida anor yetishtirishni ko'paytirish va sohani rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida, "Anor yetishtiruvchilar" uyushmasi, soha bo'yicha ilmiy markaz, agrofirma qoshida maktab tashkil etildi, Farg'ona davlat universitetida anorchilik yo'nalishi ochildi. Hozir bu yerda yuzdan ortiq talaba tahsil olyapti.

Oltiariq tumanida 380 hektar yangi o'zlashtirilgan yerlarda anorazorlar barpo etildi. O'tgan yilning o'zida tumanda yetishtirilgan 3 ming tonnadan ortiq anor eksport qilindi. Imkoniyatlar bu miqdorni tez orada ikki-uch hissaga oshirishga etadi.

Tumanning Qiziltepa massivi hamda Markaziy Farg'ona erlarida 300 hektar maydonga yangi anorazor bog'lari tashkil etilib 250 ming tupga yaqin sara ko'chatlar o'tqazildi.

O'zbekiston anori bo'yicha brend yaratish, Farg'onaning o'zida yaqin yillarda anorazorlarni 20 ming hektarga, olinadigan hosilni 216 ming tonnaga yetkazish, ko'chatchilikni rivojlantirish, danaksiz anor navlarini o'zlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lami kengayib boryapti.

Keyingi paytda mamlakatimizning qator hududlarida agrofirmalar paydo bo'ldi. Sirdaryo viloyatining Mirzaobod, Guliston, Sirdaryo, Fargona viloyatining Quva, Beshariq, O'zbekiston, Dang'ara, Buvayda, Uchko'prik tumanlarida, Jizzax, Samarqand, Navoiy viloyatlarida anorchilik aholi tomorqalarida ekilib, asosiy daromad olish manbaiga aylanib bormoqda.

Surxondaryo viloyatida ham anorchilik rivoji yaxshi. Ayniqsa, Sherobod tumanidagi ishlar har qanday kishida havas uyg'otadi. Hududdagi 48 ta mahallaning 33 tasi anor yetishtirishga ixtisoslashganligi ibrat olishga molik tajriba.

Bu xayrli sa'y-harakatga "Farg'ona anorchilik" MCHJ agrofirmasi rahbari Masturaxon Sayfullayeva ham hissa qo'shayotganidan mamnunmiz. U anorchilikni

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

ilmiy asosda rivojlantirish uchun Toshkent davlat agrar universitetining viloyat filialida tahsil olayotgan talaba qizlar va tadqiqotchi ayollarni ishga jalg qilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Muzrabot tumanida 1500 gettar anorzar barpo etishga, bunlay maydonlarni ikki barobarga kengayishiga, shuningdek, Sherobod tumanida yil yakuniga qadar anorzorlarni 5000 gettarga yetkazish, qo'shimcha 4000 ming ish o'rni yaratib, ayollar va yoshlarning bandligini ta'minlashga o'z maslahat va amaliy tajribasi bilan ko'maklashyapti[3:3].

Anor ko'chati asosan 4 xil usul bilan ko'paytiriladi:

Birinchi usulda anor donasidan yetishtiriladi, ammo bu usulda niholning o'sishi sekin va sertikan bo'lib, mevasi uncha katta bo'lmaydi.

Ikkinci usulda meva daraxt tagidan va tanasidan o'sib chiqqan yovvoyi novdalardan olib ko'paytiriladi. Bunday ko'chat tez o'sadi, ammo hosili kam bo'ladi.

Uchinchi usulda daraxt shoxlaridan novda kesib olinib ekiladi, bu usuldagagi nixon sekin o'sadi, ammo xosildorligi yuqori bo'ladi. Meva qilgan novdalardan olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'rtinchi usulda anor daraxti novdalaridan biri egilib, yerga ko'miladi. Bu usul "palgari", Farg'ona vodiysida "tizza" deb aytildi hamda tez amal olib, xosildorligi xam yuqori bo'ladi.

Eng ma'qul va yaxshi amal bo'lmish to'rtinchi usulni bahorda — anor ochilib yer tekislangach, meva qiladigan yoki extiyotsizlik qilib yarmi singan novda daraxt yoniga ko'miladi.

Ikki yildan keyin o'tkazib, yaxshi ildiz olgan ko'chatlar kovlab olinib, boshqa ochiq joydagi yerga ekiladi. Anor ko'chatini yetishtirishning eng oddiy va arzon usuli — bu ildiz bachkilaridan va ulardan chiqqan novdalari bilan qalamcha ekib, ko'chat tayyorlashdir. Qalamcha qilinadigan novdalar kuzda, anor barglari to'kilib bo'lgandan keyin kesib olinadi.

Qalamchalar anor hosili terib serxosil tuplar aniqlangach tayyorlanadi. Ayrim xollarda ko'klamda anor tupi ochilgach, to kurtak chiqarguncha taylorlasa xam bo'ladi. Tayyorlangan qalamchalar 25-30 sm uzunlikda bo'lib 20-30 donadan bog'lanib, bir necha soatga quyoshga tindirilgan suvga solib qo'yiladi va oralig'i 15 santimetrdan yerga ekiladi.

Yer usti qismi 5 santimetrdan ziyod bo'lmashagini e'tiborga olgan holda ekiladi. Qalamchalar 4-8 xafizada ildiz olib, kurtak oladi. 2-3 oyda suv bilan birga, suvda yaxshi eruvchi o'g'itlar bilan oziqlantirish, o'ta issiq xaroratlardan va suvsizlikdan saqlash choralarini bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ob-havo va tuproq sharoitiga qarab o'sish davrida 10-15 marta sug'oriladi, bu quyidagicha bajariladi: aprelda – 1, mayda – 3-4, iyunda – 3, iyulda – 3, avgustda – 2, sentyabrda – 1 marta sug'oriladi.

Anor shoxlari sekin o'suvchi, tez sinuvchi va nozik bo'lib, balandligini 3-3,5 metrdan oshirmslik maqsadga muvofiq bo'ladi.

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

Shifobahsh, extiyoji baland eksportbop, issiqsevar anor maxsulotiga bo'lgan talabning kattaligi, tuproq deyarli tanlamasligi bu o'simlikning hammabopligrini ta'min etib, bog'bon va tadbirkorlarga ko'paytirish uchun tavsiya etiladi[4:4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.H Qo'shiyev, F. Sh Ergasheva, "Anorchilik" oliy ta'lim muassasalari bakalavriyat bosqichi 5410200- Anorchilik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik , Guliston 2021.
2. <https://yuz.uz/uz/news/urugsiz-anor-navi-mahalliylashtirilmoqda>
3. <https://yuz.uz/uz/news/subtropik-mevalar-qiroli>
4. <http://xabardor.uz/uyingizda-anor-bor-doim-soglik-sizga-yor>

